

XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQIDA QO'SHIMCHA SHARTLARNING TARTIBGA SOLISH MEKANIZMI

Abdulazizov Zayniddin Zarifjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq yo'nalishi 1-kurs magistranti.

zayniddinabdulazizov11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15425772>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro shartnomalar huquqida qo'shimcha shartlarni tartibga solish mexanizmi va takomillashtirish tartibi tahlil qilinadi. Xalqaro shartnomalarning samarali amal qilishi nafaqat davlatlarning huquqiy barqarorligini, balki xalqaro xavfsizlik, savdo, ekologiya, inson huquqlari kabi strategik yo'nalishlardagi barqaror hamkorlikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot xalqaro shartnomalar huquqida qo'shimcha shartlar oid xalqaro va milliy huquqiy standartlar va mexanizmlar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar siyosati, mamlakatning boshqa davlatlar bilan tuzilgan ikki va ko'p tomonlama shartnomalari, shuningdek, O'zbekiston ishtirok etayotgan mintaqaviy va xalqaro shartnomalarini Vena konvensiyasida belgilangan normalar asosida tahlil qilinib, muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Amaliyotdagi real shartnomalar misolida qo'shimcha hujjatlarning tatbiq etilishi, ularning muvofiqlashtirish mexanizmlari va xalqaro shartnomalarda aks etishi ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Xalqaro shartnomalar, qo'shimcha shartlar, standartlar va mexanizmlar, Vena konvensiyasi, norma, milliy, xalqaro, xalqaro xavfsizlik, savdo, ekologiya, inson huquqlari, real, amaliyot.

MECHANISM FOR REGULATING ADDITIONAL TERMS IN INTERNATIONAL TREATY LAW

Abstract. This article analyzes the mechanism and procedures for regulating supplementary provisions in international treaty law. The effective implementation of international treaties plays a critical role not only in ensuring the legal stability of states, but also in maintaining sustainable cooperation in such strategic areas as international security, trade, environmental protection, and human rights. The study examines international and national legal standards and mechanisms related to supplementary provisions in treaty law, the treaty policy of the Republic of Uzbekistan, its bilateral and multilateral agreements with other states, as well as regional and international treaties in which Uzbekistan participates. Particular attention is paid to the analysis of these issues within the framework of the norms established by the Vienna Convention. The application of supplementary instruments, their coordination mechanisms, and their reflection in treaty practice are also considered through real-world examples.

Keywords: International treaties, supplementary provisions, standards and mechanisms, Vienna Convention, norms, national, international, international security, trade, environment, human rights, practice, implementation.

МЕХАНИЗМ РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЙ В МЕЖДУНАРОДНОМ ДОГОВОРНОМ ПРАВЕ

Аннотация. В данной статье анализируются механизм и порядок регулирования дополнительных условий в праве международных договоров. Эффективное применение международных договоров играет важную роль не только в обеспечении правовой стабильности государств, но и в поддержании устойчивого сотрудничества в таких стратегически важных сферах, как международная безопасность, торговля, охрана окружающей среды и права человека. Исследование охватывает международные и национальные правовые стандарты и механизмы, касающиеся дополнительных условий в договорном праве, договорную политику Республики Узбекистан, её двусторонние и многосторонние соглашения с другими государствами, а также региональные и международные договоры с участием Узбекистана. Особое внимание уделяется анализу указанных аспектов в контексте норм Венской конвенции. Также рассматриваются примеры из практики, включая применение дополнительных документов, механизмы их согласования и отражение в международных договорах.

Ключевые слова: Международные договоры, дополнительные условия, стандарты и механизмы, Венская конвенция, нормы, национальный, международный, международная безопасность, торговля, экология, права человека, практика, реализация.

KIRISH

Xalqaro shartnomalar ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bu tashqi resurslarning kirib kelishiga, madaniyatlararo almashinuvning rivojlanishiga va xalqaro aloqalarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Biroq, xalqaro shartnomalar bo'yicha yangi muammolar va kutilmagan holatlarga duch kelishda va buning natijasida shartnoma shartlariga qo'shimchalar kiritish zaruriyatiga yuzga keladi. Shuning uchun xalqaro shartnoma shartlari bo'yicha qo'shimcha shartlarni kiritish mexanizmini doimiy ravishda rivojlantirish muhim hisoblanadi. Xalqaro huquqning asosiy institutlaridan biri bo'lgan xalqaro shartnomalar huquqi bugungi globallashuv va geopolitik integratsiya sharoitida davlatlararo munosabatlarning huquqiy asosini tashkil etadi. Xalqaro shartnomalarning samarali amal qilishi nafaqat davlatlarning huquqiy barqarorligini, balki xalqaro xavfsizlik, savdo, ekologiya, inson huquqlari kabi strategik yo'nalishlardagi barqaror hamkorlikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro shartnomalar tarkibida muhim o'rin egallovchi qo'shimcha shartlar (protokollar, ilovalar, deklaratsiyalar) mazkur hujjatlarning izchil va to'laqonli tatbiq etilishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarning qariyb 60 foizida turli shakldagi qo'shimcha hujjatlar mavjud. Masalan, 2015-yilda qabul qilingan Parij iqlim bitimi (*Paris Agreement under the United Nations Framework Convention on Climate Change. – Paris, 2015*)ga ilova sifatida ishlab chiqilgan deklaratsiyalar va milliy majburiyatlar ro'yxati (NDCs) asosiy shartnomaning huquqiy kuchini mustahkamlovchi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.¹

¹ United Nations Framework Convention on Climate Change. (2015). *Paris Agreement*. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement/the-paris-agreement>.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Huquqshunoslikda nazariyaning o'zni beqiyosdir. O'zbekistonda faoliyat olib borgan bir qancha milliy olim va yuristlarimiz xalqaro shartnoma huquqi, jumladan, Xalqaro shartnoma huquqida qo'shimcha shartlarni tartibga solish mexanizmni tadqiqot qilganlar. Xalqaro normalar bilan birgalikda milliy huquq butun mamlakatimiz hududida Xalqaro shartnomalarni tartibga solish bo'yicha davlat siyosatining umumiy yo'nalishlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.² Shu o'rinda, yuridik fanlar doktori, akademik A.X. Saidov, yuridik fanlar doktori, professor M.A.Tillaboyev, L.Isoqov, M.Hamidova, N.A.Nugmanov, S. Ishonxodjayev, G.G.Nazarova, N.X.Xaydarov, D.SH.Umarxanova va bir qancha olimlarimiz Xalqaro shartnomalar huquqi jumladan, Xalqaro shartnomalar huquqida qo'shimcha shartlarni tartibga solish bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar olib borganlar. Xalqaro miqyosdagi olimlardan I. Brownlie, A. Aust, M. Fitzmaurice, E. Denza, J. Klabbers, A.Abashidze, I.V.Ivanyuk, I.G.Ushkalov, P.Appleyard, K.Bretel, M.Vokuyev, S.Gusarova, S.Joldasova, kabi huquqshunoslarning asarlari tadqiqot ishida qo'llash uchun o'rganilgan.

Ian Brownlie xalqaro huquqning yetakchi nazariyotchilaridan biri bo'lib, u o'zining *"Principles of Public International Law"* kitobida xalqaro shartnomalarning huquqiy tabiati, qo'shimcha shartlar va ularning amaliy ta'sirini tahlil qilgan. Ian Brownlie shuningdek, qo'shimcha shartlarning shartnoma amal qilishiga ta'sirini baholashda shartnoma ishtirokchilari o'rtasida mutanosiblik va manfaatlar balansi muhimligini ta'kidlaydi.³ Xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbasi bu xalqaro odat hisoblanadi, chunki xalqaro shartnomalar xalqaro odat asosida shakllandi. Xalqaro odat – huquq normasi sifatida tan olingan umumiy amaliyotning isbotidir. Aksariyat davlatlar turli sabablarga ko'ra xalqaro shartnomalarda ishtirok etmaydi. Ular uchun shartnomalar huquqi odat huquq tarzida amal qilinishida davom etadi. Xalqaro shartnomalar huquqining asosiy prinsip va normalarining kodifikatsiyasi natijasida quyidagi xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbasi hisoblangan uchta yirik konvensiya qabul qilindi. 1969-yildagi *"Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"*gi Vena konvensiyasi (faqatgina davlatlararo tuzilgan shartnomalarga oid).⁴ 1978-yildagi *"Shartnomalarga nisbatan davlamlarning huquqiy vorisligi to'g'risida"*gi Vena konvensiyasi (Xalqaro shartnomalar huquqiga qisman tegishli bo'lgan). 1986-yildagi *"Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar to'g'risida"*gi Vena konvensiyasi. Mazkur konvensiyalar shartnomalarning faqat yozma ko'rinishlariga taalluqli xolos. Ular yozma tarzda tuzilmagan shartnomalar va davlat yoki tashkilot emas boshqa turdagi subyektlarning ishtirokida tuzilgan shartnomalarga tegishli emas.⁵

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jahon taraqqiyotining tez sur'atlarda o'sishi shartnomalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish muommosini tobora dolzarb qilmoqda. Xalqaro tizimning aniq o'zgarishlarini hisobga olganda

² Пархомова Ю. Источники международного миграционного права. Журнал международного права и международных отношений №3, 2008. -С.32.

³ Brownlie, I. (2008). *Principles of Public International Law* (7th ed.). Oxford University Press.

⁴ United Nations. (1969). *Vienna Convention on the Law of Treaties*.

http://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/1_1_1969.pdf

⁵ United Nations. (1986). *Vienna Convention on the Law of Treaties between States and International Organizations or between International Organizations*. http://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/1_2_1986.pdf

bu muommo ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada II Jahon urushidan keyingi tajriba muhim hisoblanadi. Urush amaldagi jahon tizimi qanchalik xatarli ekanligini ko'rsatib berdi. Natijada prinsipial mafkuraviy tafovudlarga qaramasdan davlatlar BMT Ustavi asosidagi yangi xalqaro–huquqiy tizimni shakllantirishga rozi bo'lishdi. Sovuq urush tugagandan so'ng yangi munosabatlarni shakllantirilishi natijasida xalqaro shartnomalar huquqiga o'zgartirishlar kiritildi. Shu vaqtgacha tomonlarning kelishuvidan tashqari aniq qoidalar mavjud emas edi. “O'zgartirish” va “qayta ko'rib chiqish” tushunchalari paydo bo'la boshladi. BMT Kotibiyatining shartnomaning yakuniy qoidalari to'g'risidagi hujjatda o'zgartirish to'g'risida normalar va shartnomaning nazorati to'g'risidagi normalar o'rtasidagi farqlar keltirilgan. Birinchisi shartnomaning alohida normlarini almashtirish, ikkinchisi esa shartnomani o'zini almashtirishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ko'p tomonlama shartnomalar ko'pchilikning roziligi bilan o'zgartiriladi. Umumiy shartnomada alohida o'zgartirishlar kiritilishiga ham yo'l qo'yiladi. Rasmiy o'zgartirish kiritmasdan tomonlarning roziligi bilan amaliyotda shartnomaning qoidalarini o'zgartirish tartibini belgilash yanada qiyin masaladir. Xalqaro munosabatlar turli xil va ko'p qirrali xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar shartnomalarni shakllantirishda e'tiborga olinadi. U yoki bu sohada hamkorlik haqidagi umumiy xarakterdagi normalar ham mavjud. Ularning asl ma'nosi hamkorlik darajasi va ishtirokchilarning kelishilgan amaliyotidan kelib chiqadi. Imperativ normalar, masalan radio to'lqinlarni tarqalishiga oid normalar ham mavjud.⁶ Qo'shimcha va o'zgartirishlar davlatlarning huquq va majburiyatlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Shartnomaga o'zgartirish kiritish uchun barcha tomonlarining roziligi kerak degan qoida 1871-yilgi London Protokoli (*Protocol of London, 17 January 1871*)da mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra har qanday davlat o'z shartnomaviy majburiyatlarini faqat “do'stlik kelishuvi orqali erishilgan tomonlarning roziligi” asosida o'zgartirishi mumkin. BMT Kotibiyati huquq departamentining memorandumida: “o'tmishda ko'p tomonlama konvensiyalar dastlabki kelishuvchi tomonlarning umumiy roziligi bilan o'zgartiriladi degan fikr mavjud bo'lgan” – deyiladi.⁷

XULOSA

Xalqaro shartnomalar huquqida qo'shimcha shartlarni tartibga solish mexanizmi xalqaro shartnomalarda yangi shartlar kiritish yoki mavjud shartlarni o'zgartirish jarayonlarini tashkil etuvchi qoidalar va mexanizmlarni anglatadi. Qo'shimcha shartlar yoki o'zgartirishlar shartnoma tomonlari o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmni quyidagicha tushuntirish mumkin. Xalqaro shartnoma imzolanganida, uning matnida qo'shimcha shartlar, o'zgartirishlar yoki yangi talablar kiritilishi mumkin. Bular asosan shartnoma imzolangan mamlakatlar yoki tomonlar o'rtasida kelishilgan holda belgilanadi. Shuningdek, Shartnomalarni o'zgartirish yoki yangi shartlar qo'shish uchun, tomonlar qo'shimcha protokollar yoki kelishuvlarni imzolashlari mumkin. Bu protokollar shartnomaning bir qismiga aylanadi va barcha tomonlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. Hamda Qo'shimcha shartlarni kiritish uchun barcha tomonlarning roziligi zarur bo'ladi. Agar bir tomonning roziligi bo'lmasa,

⁶ Umarxanova, D., Xakimov, A., & Rashidov, K. *Xalqaro shartnomalar huquqi*. (Toshkent 2021-yil). 111-bet.

⁷ Great Britain, Austria-Hungary, France, Germany, Italy, Ottoman Empire, & Russia. (1871). *Protocol of London, 17 January 1871*. In *British and Foreign State Papers* (Vol. 61, pp. 19–20). London: Her Majesty's Stationery Office.

shartnoma bo'yicha o'zgartirishlar amalga oshirilmaydi. Xalqaro shartnomalarga qo'shimcha shartlar kiritish yoki ularni o'zgartirishda ko'pincha xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT yoki boshqa maxsus tashkilotlar ishtirok etadi. Bu tashkilotlar shartnoma ijrosini ta'minlash va yangi kelishuvlarni rasmiylashtirishda muhim rol o'ynaydi. Agar qo'shimcha shartlar yoki o'zgartirishlar bo'yicha tomonlar o'rtasida nizolar yuzaga kelsa, ularni hal qilish uchun xalqaro sud yoki arbitraj tizimlaridan foydalanish mumkin. Bu tizimlar shartnoma ijrosini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ba'zi hollarda, qo'shimcha shartlar yoki o'zgartirishlar shartnoma matniga bevosita kiritiladi, ba'zan esa yangi huquqiy hujjatlar yoki qo'shimcha protokollar shaklida chiqariladi. Umuman olganda, xalqaro shartnomalarga qo'shimcha shartlar kiritish va o'zgartirishlar jarayoni aniq va tartibli bo'lishi kerak, shunda barcha tomonlar o'rtasida adolatli va tushunarli kelishuvlar amalga oshiriladi. "Xalqaro shartnomalar tog'risida"gi 1969-yildagi Vena Konvensiyasi xalqaro shartnomalarni o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha asosiy normalar belgilab qoyilgan xalqaro hujjat hisobalandi. Bundan tashqari 1986-yilgi "Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar to'g'risida"gi Vena konvensiyasi shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi belgilangan. Bugungi kunda ko'p tomonlama shartnomalar ko'pchilikning roziligi bilan o'zgartiriladi. Umumiy shartnomada alohida o'zgartirishlar kiritilishiga ham yo'l qo'yiladi. Rasmiy o'zgartirish kiritmasdan tomonlarning roziligi bilan amaliyotda shartnomaning qoidalarini o'zgartirish tartibini belgilash yanada qiyin masaladir. Shartnoma shartlarni o'zgartirish yoki qo'shimcha shartlarni kiritish bo'yicha aniq mehanizm ishlab chiqilish va buni amaliyotga tadbqiq qilinishi muhim hisobalandi. Buning natijasida xalqaro shartnomalar huquqida bir insitut paydo bo'ladi. Bu esa taraflarga ko'plab qulayliklar yaratib berishi mumkin.

REFERENCES

1. United Nations Framework Convention on Climate Change. (2015). Paris Agreement.
2. Brownlie, I. (2008). Principles of Public International Law (7th ed.). Oxford University Press.
3. Пархомова Ю. Источники международного миграционного права. Журнал международного права и международных отношений №3, 2008.-С.32.
4. United Nations. (1969). Vienna Convention on the Law of Treaties.
5. United Nations. (1986). Vienna Convention on the Law of Treaties between States and International Organizations or between International Organizations.
6. Umarxanova, D., Xakimov, A., & Rashidov, K. Xalqaro shartnomalar huquqi. (Toshkent 2021-yil). 111-bet.
7. Great Britain, Austria-Hungary, France, Germany, Italy, Ottoman Empire, & Russia. (1871). Protocol of London, 17 January 1871. In British and Foreign State Papers (Vol. 61, pp. 19–20). London: Her Majesty's Stationery Office.